

BOSHLANG'ICH SINFLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Raximova Diloram Saparbayevna
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
27-son IDU o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi,
[Tel:+99899-569-55-78](tel:+99899-569-55-78)

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samarali jihatlari, bu jarayonda, fanlar o'rtasidagi integratsiya holati, innovatsion metodlarni yaratishda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, metod, innovatsion faoliyat, innovatsion muhit, malakali o'qituvchi, texnologiya, axborot texnologiyalari, integratsiya, motivatsiya, interfaol usullar.

*“Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk
qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir”*
Shavkat Mirziyoyev

Bugungi axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda barcha mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylanib qolmoqda. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nadan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Ta'lim - tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb - hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

Bugungi kun o'qituvchisi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali va sifatli tashkil etishdan iboratdir. Innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar: o'qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi va qo'llanilishi o'quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Pedagogik yangilik esa, pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini

boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Bolaning tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiq qila olishi, ta'limning yangi usul va metodlarini izlashi, pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir.

Shuning uchun ham o'quv jarayoniga pedagogik yangiliklarni kiritish, ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, turli innovatsion usul va metodlaridan foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylandi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy metodlari o'tkazish usullariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan intilish, xohish va istaklarini uyg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini takomillashtirish, muhim ahamiyatga kasb etadi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinflarda "Aqliy hujum", "6x6", "Quvnoq quyonchalar", "Bu meniki", "Charxpalak", "Zanjir", "Davom ettir", "Maqollar zanjiri", "Yosh suxandon", "Sinkveyn" metodi, "Venn diagrammasi", "Zig-zag" texnologiyasi, "Topib o'qi" "Sinkveyn", "Keys stady", "Insert", "BBB", "Reklama metodi" kabi metodlar ham o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanilmoqda. Metodlarning ahamiyati shundaki, bu bir nechta bosqichni qamrab olganligi hamda o'quvchilarda mustaqil tadqiqotchilik qobiliyatlarini takomillashtirishga qo'l keladi.

Yuqoridagi, o'zida innovatsion pedagogik ruhni singdirgan bunday dars usullari o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshiribgina qolmasdan, ulardan mustaqil tadqiqotchilik hamda intiluvchanlik xislatlarining chuqur tomir otishida yordam berishiga ishonchimiz komil. Lekin, mazkur metodlarni qanday vaziyatda yoki qaysi sharoitda qo'llash, ularni o'quvchilarga qay tarzda tushuntirib yetkaza olishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqligini unutmasligimiz zarur.

"Innovatsiya" - bu yangilik demakdir. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga, albatta, biror yangiliklar yaratib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo'ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasida

aniq belgilanadi. Bu ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. Men ko'pincha darslarimda "Blits-o'yin" texnologiyasidan keng foydalanaman. Ushbu texnologiya o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan narsaning ko'p xilma-xil ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o'quvchilar o'zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o'tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to'liq sharoit yaratib beradi. Bu texnologiya yettita bosqichda amalga oshiriladi. O'quvchilar buni juda qiziqib bajaradilar va ularning yodida mavzu uzoq saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi, innovatsion g'oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Bulardan samarali foydalanish o'qituvchidan juda yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Biz o'qituvchilar har doim jajji o'quvchilarimiz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo'lishimiz lozim va bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, didaktik o'yinlar, interfaol uslublar, ta'limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o'quvchini yangi mavzuni puxta o'zlashtirishga va ta'lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz pedagog muallimlarning ham maqsadimiz shudir. O'quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bo'lamiz. O'quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa bu o'z natijasini beradi. Mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog'liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
2. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod- 2010.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2017, T; Ma'naviyat.
4. O'.Q.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarning tanqidiy asoslari. - T.: Fan, 2006.
5. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. - T., 2001